

Ilhom Sodiqov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati"
kafedrasi dotsenti
E-mail: Ilhomsodiqov1972@gmail.com*

REJISSYORLARNI TARBIYALASHDA BADIY DID MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada rejissyorlarni tayyorlash jarayonida badiiy didni shakllantirishning nazariy-amaliy jihatlari, estetik tafakkurning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati, zamonaviy pedagogik metodlar hamda ularni amaliy rejissura o'quv jarayoniga joriy etish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy didni yuksaltirishga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish yo'llari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: dramaturgiya, rejissura, badiiy did, pedagogika, estetika, metod, sahna, kino, perfomens.

ARTISTIC TASTE ISSUES IN THE EDUCATION OF DIRECTORS

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing artistic taste in the process of training directors, the significance of aesthetic thinking in professional activity, modern pedagogical methods, and the issues of their implementation in practical directing education. Furthermore, the study scientifically substantiates the ways of developing knowledge, skills, and competencies aimed at enhancing artistic taste.

Keywords: dramaturgy, directing, artistic taste, pedagogy, aesthetics, method, stage, cinema, performance.

Rejissyorlik – san'at va fikrning sintezidan tashkil topgan murakkab ijodiy kasb hisoblanadi. Rejissyor tomoshabinga ta'sir etuvchi badiiy g'oyani namoyish qilibgina qolmasdan, balki uni ifodaviy vositalar orqali to'liq mazmun va mohiyatni chuqur namoyon etadi. Shu bois rejissyor shaxsida nafaqat texnika,

malaka, balki yuqori darajadagi badiiy did, estetik tafakkur va san'atni chuqur his qilish qobiliyati asosiy o'rin tutadi.

Zamonaviy raqobat va san'atdagi yangilanishlar rejissyorlarni tayyorlash tizimining sifatiga katta talab qo'ymoqda. Badiiy did yetishmasligi sahna asarlarida shakl va mazmunning nomutanosibligi, badiiylashgan qiymatning pasayishi, tomoshabin zavqining qondirilmashligi kabi muammolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun badiiy did rejissyor – talabaning shakllanishida pedagogik jarayonning markaziy vazifasiga aylanmoqda [1].

Badiiy did tushunchasi va uning rejissyor – talabadagi o'rni, badiiy didning mazmun-mohiyati uning ijodida muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy did – bu shaxsning estetik qiymatlarni to'g'ri baholashi, san'at asarlaridagi g'oyaviy yaxlitlikni anglashi, yuqori estetik talab asosida tanlash va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatidir. U estetik tafakkurning amaldagi ko'rinishi bo'lib, ijodkorning ichki mezonini shakllantiradi. Rejissyorni tomoshabin diqqatini boshqarishda muhim omil bo'la oladi.

Rejissyor faoliyatida badiiy didning ahamiyati qanday?

Spektakl sahnalashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan rejissyor uchun badiiy did, eng avvalo, dramaturgik materialni saralashdan boshlanadi. U asarning g'oyasi, dolzarbligi, obrazlar orqali tomoshabinga nima demoqchi ekanligini aniq bilishi uchun ham did kerak. Rejissyordagi badiiy did, obrazlar tizimini yaratishda, sahna echimini topishda, rang, nur va harakat qonuniyatlarini tanlashda, aktyorlar bilan ishlash, umumiy estetik konsepsiyani shakllantirish asosiy o'lchov mezoni vazifasini bajaradi [2].

Badiiy did rivojlanmagan rejissyorning ijodida tasodifiylik, estetik beqarorlik va ortiqcha formalizm kuchayishi kuzatiladi. U o'z asarlarida ko'r-ko'rona yondashish, hissiy qalb va nomutanosiblikni vujudga keltiradi.

Rejissyorlarni tayyorlashda badiiy didni shakllanmaganligining asosiy masalalari bu – tarbiya, estetik bilimlarning etarli darajada berilmashligi. Ko'p hollarda amaliyotga yo'naltirilgan darslar, estetika, san'at va teatr nazariyasi,

musiqa, rassomchilik, dramaturgiya kabi fanlarni etarli darajada o'zlashtirilmaganligi, yoki unday fanning mashg'ulot dasturiga umuman kiritilmaganligi talabaning idrok etish qobiliyatini cheklaydi. Zamonaviy san'at kompleks tendensiyalaridan xabardorlikning pastligini vujudga keltiradi [3].

Innovatsion teatr, kino, multimedia san'ati, rejissuradagi yangi oqimlar haqida yetarli ma'lumot berilmasligi, badiiy saviyani, didi va dunyoqarashlarini tor doiraga tushirib qo'yadi. Natijada rejissyor ko'r-ko'rona asarlar tanlab uni kim nima desa shunga ishonib ishlab ketaverish kasriga uchraydi.

Ko'plab talabalarda spektakl tahlili, vizual baholash, asar kompozitsiyasini bir deganda anglash, obrazlarni chuqur mulohaza qilish, mustaqil tahlil ko'nikmalari, kamchiliklarni aniqlash kabi muhim professional ko'nikmalari shakllanmagan bo'ladi. Buning eng katta sabablaridan biri, talabada ijodiy ko'nikma, muhit va amaliyotning yetishmasligi natijasida vujudga kelgan.

Badiiy did insonda mustaqil kuzatish, tajriba va estetik muhit ta'sirida shakllanadi. Yoshlikdan unga berilgan ilm, oiladagi muhit, ta'lim olinayotgan muassasada bola uchun maxsus sharoit yaratilmas ekan, did taraqqiyoti sustlashadi.

Badiiy didni tarbiyalash, uni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Oilada ijodiy sog'lom muhitni yaratish.
2. Ilimga bo'lgan ishtiyoqni mutaxassis orqali qondirish.
3. Interaktivlik – san'at turlarini bir-biriga bog'lab o'rganish.
4. Ijodiy faollik – talabani ijodiy qaror qabul qilish jarayoniga kiritish.
5. Strategik va tizimlilik – badiiy did bosqichma-bosqich rivojlantirish.
6. Shaxsga yo'naltirilgan tarbiya – bu har bir bolani individual yondashuv bilan tarbiyalash degani [6].

Badiiy didni rivojlantiruvchi qonunlar: idrok, his tuyg'u, tasavvur, fikrlash, emotsional intellekt. Mutaxassislarning tadqiqotiga ko'ra bolaga yoshlikdan ilm berish jarayonida estetik idrok, tajriba, bilim, emotsional ta'sir hayotida tez-tez uchrab tursa uning sintezlaridan inson didi tashkil topadi.

Rejissyor o'zida badiiy didni shakllantirishi uchun kompleks estetik bilim olishi kerak. Uning ta'lim olishida quyidagi fanlar chuqurlashtirilgan holda o'qitilishi zarur:

1. Teatr tarixi va nazariyasi.
2. Dunyo san'ati tarixi.
3. Tasviriy san'at asoslari.
4. Musiqiy asoslari va tarixi.
5. Dramaturgiya nazariyasi.
6. Kino va televideniye tarixi.
7. Raqs nazariyasi va tarixi.

Bu fanlar rejissyorga san'at tarixini va kelajakni yaxlit idrok qilish imkonini beradi. Sahnaviy tahlil ko'nikmalari rejissyorni asar tanlashdagi didini rivojlantirishga yordam beradi. Hayotni chuqur anglaydi [7].

Talabalar muntazam ravishda: spektakl, film, turli bayram tadbirlarini tahlil qilishi, uni badiiy qiymati va estetik mezonlarini mutaxassis-ustoz nazorati ostida baholashi kerak. Bu talabadagi asar ustida ishlash didni shakllantiradi.

“Xatti-harakat tahlili”, “Kompozitsion tahlil” va “dramaturgik tahlili” kabi metodlar joriy etiladi. Amaliy ijodiy laboratoriyalar, eksperimental sahnalar, tashkil etilishi spektakllar, ijodiy master-klasslar, rejissyorlik mashg'ulotlar, sahna kompozitsiyasi treninglarda doimiy ravishda mashg'ulotlar o'tkazilishi rejissyorning badiiy didini amaliyotda shakllantiradi.

Rejissyorning shaxsiy estetik tajribasini boyitish uchun: muzeylarga, teatrlarga, konsertlarga, kinofestivallarga, borishini rag'batlantirilish kerak. Mustaqil estetik kuzatish badiiy didning shakllanish omillaridan biridir.

Multimedia va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham texnologiyadan foydalanish didini shakllantiradi. San'atning raqamli formalari rejissyor uchun yangi estetik imkoniyatlar yaratadi: videoart, 3D-kompozitsiya,svetodizayn,VR sahna, interaktiv performans. Sun'iy intellekt kabi vositalar rejissyor tafakkurida estetik

yangilanishga olib keladi. Dunyo tajribasi va milliy rejissura ta'limi o'rtasidagi uyg'unlik paydo qiladi [8].

Dunyo teatr maktablarida (Stanislavskiy, Brext, Grotovskiy, Arto, Meyerxold maktablari) badiiy didni shakllantirishning asosiy yo'llari bu – mashg'ulotlarni sinkretik usulda o'tkazish, aktyor va rejissyorni bir mushtarak ijodkor sifatida tayyorlash, estetik-emotsional tajribaga tayanish, jismoniy va psixofizik tayyorgarlikni, yaxlitlikni yuzaga keltirish, hayotiy tajribaga ega bo'lish orqali natijaga erishganlar .

Milliy va xalqaro san'at durdonalaridan namunalarni chuqur tahlil qilish. O'zbek va dunyo xalq eposi, maqom san'ati, Yevropa xalqlarini ijrochilik san'ati, xorijiy va milliy raqs maktablari. Adiblar va adabiyot namoyandalari hayotidan tajribalar olish. Ijodkor shaxslarning hayotini o'rganish rejissyor talaba uchun estetik tafakkurini boyitishda muhim manba hisoblanadi. Rejissura san'ati ta'limida samarali foyda beradi.

Xulosa qilib aytganda, rejissyorlik kasbida badiiy did markaziy o'rin tutadi. Uning shakllanishi tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, pedagog yordamida estetik va amaliy jarayonlardan o'tishini talab etadi. Rejissyorni tayyorlash jarayonida nazariy bilim, muhit, amaliyot va ijodiy tajriba nazariy ilmlar bilan teng olib borilishi shart. Ushbu mashg'ulotlar bir-biriga uyg'un holda olib borilsa, natijada yuqori didli, zamonaviy fikrlaydigan, san'atga ehtiromi kuchli ijodkorlar yetishib chiqadi. Badiiy did rejissyor talabada chuqur shakllangan bo'lishi shart. Milliy teatr va kino san'atining rivoji, ijodkorlarning salohiyati va didi xalq madaniyatining yuksalishi uchun asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A. *Estetika asoslari*. – Toshkent: Fan, 2019. – 123 b.
2. Станиславский К. *Моя жизнь в искусстве*. – Москва: Эксмо, 1989. – 600 с.
3. Брехт Б. *Театр теории*. – Москва: Искусство, 1974. – 560 с.

4. Гротовский Й. К бедному театру. – Варшава: Артист. Режиссер. Театр, 1968. – 304 с.
5. Арто А. Театр и его двойник. – Париж: Éditions Gallimard, 1964. – 160 с.
6. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'quv qo'llanmalari, 2020–2024.
7. Jumaniyozov N. Rejissura asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 220 b.
8. Umarbekov J. San'at nazariyasi va estetika. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 200 b.
9. Чехов М. Актёр техники ҳақида. – Москва: Искусство, 1991. – 260 б.
10. Замонавий режиссура боъйисҳа хорижий электрон манбалар (театр сҳунослик журналлари, конференсия материаллари).